

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



**O‘RTA MAXSUS
TA’LIMNING
DAVLAT TA’LIM
STANDARTI**



TOSHKENT-2024

O‘rta maxsus ta‘limning davlat ta‘lim standarti O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-iyuldagi 252-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Ishchi guruh tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta‘lim standartlari va davlat ta‘lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 27-martdagi 157-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. Davlat ta‘lim standartiga tizimida harbiy akademik litseylari mavjud harbiy vazirlik va idoralar hamda Ta‘limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining taklif va xulosalari olingan.

Ushbu davlat ta‘lim standarti Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2024-yil 20-avgustdagi 9-son yig‘ilish bayoni bilan ma‘qullangan hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 30-avgustdagi 327-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

O'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standarti

“O'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standarti” (keyingi o‘rinlarda – davlat ta'lim standarti yoki DTS deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 27-martdagi 157-son qaroriga asosan ishlab chiqilgan.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to‘qqiz yillik tayanch o‘rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek, chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Davlat ta'lim standarti YUNESKOning “Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST-2011)” (International Standard Classification of Education (ISCED-2011) (keyingi o‘rinlarda – Xalqaro tasniflagich)ning 3-darajasida belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgan. O'rta maxsus ta'lim bosqichi bitiruvchilari O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasining 3-malaka darajasida belgilangan talablarga javob berishi kerak.

Tasniflagichda ta'lim bosqichlari, bilim va ta'lim sohalari, tayyorlov yo‘nalishlari yettita raqamli kod bilan belgilanadi. Ta'limning xalqaro klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichi – o'rta maxsus ta'limi 3 raqami bilan belgilangan.

Ta'lim sohasi kodi	Ta'lim sohasi nomi
3910000	Aniq fanlar
3920000	Tabiiy fanlar
3930000	Ijtimoiy-gumanitar fanlar
3940000	Xorijiy tillar

X	X	X	XX	XX	
					- mutaxassislik kodi
					- yo‘nalish kodi
					- ta'lim sohasi kodi
					- bilim sohasi kodi
					- ta'lim dasturi bosqichi kodi

1. Umumiy qoidalar

1. Davlat ta'lim standarti “O'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standarti”ning maqsad va vazifalarini, asosiy prinsiplarini, tarkibiy qismlarini hamda ta'lim yo‘nalishlari bo‘yicha malaka talablarining tuzilishiga qo‘yilgan talablarni belgilaydi.

2. Davlat ta'lim standarti talablarini bajarish O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha o'rta maxsus ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq nodavlat ta'lim tashkilotlari mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada yoki xabarnomada ko‘rsatilgan o‘quv dasturlari asosida ta'lim faoliyatini amalga oshirishlari mumkin.

3. Davlat ta'lim standarti o‘quv jarayoni, ta'lim muassasalari faoliyati, kadrlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli hujjatlarni (o'rta maxsus ta'lim yo‘nalishlari uchun malaka talablari, o‘quv rejaları, o‘quv dasturlari va boshqalar) ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

4. Davlat ta'lim standartida quyidagi atamalar va ta'riflar qo‘llanilgan:

davlat ta'lim standarti – davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

kompetensiya – bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui;

umumiy kompetensiya – bilim, ko'nikma va malaka turlarining ko'pchiligi uchun umumiy bo'lgan masalalarni yechishda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish qobiliyati;

malaka talablari – ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar;

mustaqil ish – o'quvchi tomonidan o'quv rejaning tarkibiy qismlari bo'yicha kompetensiyalarni o'zlashtirish, mustahkamlash va takomillashtirish maqsadida bajariladigan o'quv jarayonining bir qismi;

ta'lim dasturi – davlat ta'lim standarti, milliy (tarmoq) malaka doirasi va kasbiy standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan malaka talablari, o'quv reja, o'quv dasturlari va tegishli metodik ko'rsatmalardan iborat me'yoriy-uslubiy hujjatlar majmui;

o'quv jarayoni jadvali – ta'lim jarayonining ketma-ketligi va almashuvchanligini, attestatsiya va ta'til vaqtlarini belgilovchi hujjat;

o'quv reja – o'rta maxsus ta'limning muayyan ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslari hamda ularni o'rganish izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat;

o'quv fani – ta'lim muassasalarida o'rganish uchun fan, texnika, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, o'quv va ko'nikmalar tizimi;

o'quv dasturi – o'rta maxsus ta'limning o'quv rejasiga kiritilgan fanlarning mazmuni, uning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan hujjat;

o'qitish natijalari – o'quv jarayonining ma'lum bosqichi yakuni bo'yicha ta'lim oluvchi baholanadigan kompetensiyalar.

2. Asosiy maqsadlar va rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari

5. Davlat ta'lim standartining maqsadi – o'rta maxsus ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, shuningdek, belgilangan talablarga javob beruvchi, ma'naviy barkamol, mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta'lim va o'qitish sifatiga, ta'lim mazmuniga, ta'lim oluvchilar va ularning tayyorgarlik darajasiga, ta'lim darajasidagi kompetensiyalar va natijalarga, beriladigan malakalarga, talab qilinadigan o'quv yuklamasi va faoliyati hajmiga va baholash mexanizmlariga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

6. Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

o'rta maxsus ta'limning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

ta'limning turlari, mazmuni, ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi bo'yicha ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash;

o'qitish natijalarini baholash tartibi hamda ta'lim va tarbiya sifatini nazorat qilishni takomillashtirish;

milliy standartlar talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

7. Davlat ta'lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

ta'limning davlat, jamiyat, mehnat bozori va shaxs ehtiyojlariga mosligi;

ta'lim va tarbiyaning yaxlitligi, barcha uchun teng va kafolatlanganligi;

ta'lim turlari va bosqichlari o'rtasida uzluksizlik hamda ta'lim mazmuni uzviyligining ta'minlanganligi;

gender tenglik va inklyuziv ta'lim olish huquqlarining ta'minlanganligi;

ta'lim oluvchilarga yo'naltirilganligi va ta'lim oluvchilar shaxsi, intilishlari, qobiliyatlari hamda qiziqishlarining inobatga olinganligi;

O'zbekiston ta'lim siyosatini hisobga olgan holda xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasidagi tajribalaridan foydalanilganligi;

o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi.

3. Ta'lim natijalari

8. O'rta maxsus ta'lim dasturini o'zlashtirgan ta'lim muassasasi bitiruvchisi quyidagi umumiy kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak:

- o'qitiladigan fanlar doirasida nazariy, amaliy kompetensiyalarga ega bo'lish;
- bilimlarni muntazam oshirish va yangilab borishga intilish, o'quv faoliyatiga ijodiy hamda mustaqil yondashish sifatlariga ega bo'lish;
- mantiqiy fikrlashning uslublari va usullarini bilish, ularni amaliy faoliyatda qo'llay olish malakasiga ega bo'lish;
- mustaqil va kreativ fikrlash, fikrlarini yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalari shakllangan bo'lishi;
- davlat tilini mukammal bilish;
- kamida bitta xorijiy tilni mukammal bilish;
- davlat va xorijiy tildagi hujjatlar bilan ishlay olish;
- ma'naviy-axloqiy madaniyatga ega bo'lish;
- liderlik xislatlariga ega bo'lish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlashning amaliy ko'nikmalarini mustahkam egallash;
- jismonan sog'lom, harbiy xizmatga va tezkor tibbiy yordam ko'rsatishga layoqatli bo'lish;
- sog'lom turmush tarzi, mehnat madaniyati, intellektual madaniyat va boshqa madaniy munosabatlarda o'zini to'liq namoyon qila olish;
- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish borasidagi me'yor va tartiblar mohiyatini bilish;
- umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, o'z Vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish;
- mamlakat, jamiyat, insoniyatning axloqiy va huquqiy qonunlarini tan olgan, tanlash erkinligi va boshqa odamlarning huquqlarini hurmat qilgan holda, o'z fikrini, dinini, turmush tarzini tanlashda erkin bo'lish;
- turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, yangiliklarga doimiy intilish, masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish;
- faoliyat doirasida tegishli masalalarni hal qilish yo'llarini izlash, tahlil va talqin qila olish;
- Vatan tarixini bilish, davlatning tuzilishi, uning ijtimoiy va siyosiy rivojlanishi haqida aniq bilimlarga ega bo'lish, xalqaro voqea, hodisa va muammolarni tushuna olish;
- huquqiy madaniyatga egalik, fuqarolik burch va mas'uliyat hislari shakllangan bo'lishi;
- ekologik madaniyatga ega bo'lish, ekologik mas'uliyatni his qilish, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi bilimlarni egallash;
- zamonaviy dunyo talablariga javob beradigan, jahon madaniyatiga kirishga imkon beruvchi faoliyat sohasini erkin tanlash imkonini beradigan ta'lim darajasiga ega bo'lish.

4. O'qitish metodikasi

9. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimedia taqdimotlarini keng tatbiq qilish va buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida:

- o'quv guruhlarini tarkibi 26 nafar o'quvchidan ortiq bo'lmagan tarzda shakllantiriladi;
- quyidagi fanlar bo'yicha har semestrda, o'quv guruhlarida o'quvchilar soni 22 nafar va undan ortiq bo'lganda, o'quvchilarning salohiyatiga ko'ra teng nisbatda guruhlariga bo'lib o'qitishga ruxsat etiladi;
- o'zbek (rus) tili;

chet tili;
 informatika va axborot texnologiyalari;
 chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar (ta'lim yo'nalishlari bo'yicha).
 Boshqa fanlar bo'yicha guruhlarini kichik guruhlariga bo'lib o'qitish ta'qiqlanadi.

10. Quyidagilar:

umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari umumta'lim tayyorgarligiga qo'yilgan majburiy talablarni shakllantirish bilan birga ularning iqtidorini har tomonlama rivojlantirish imkonini beruvchi o'quv dasturlari asosida o'qitish tartibi joriy etiladi;

ta'lim bosqichlari uzluksizligini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarining turdosh ta'lim yo'nalishlarida takroran o'qitiladigan fanlar akademik litseylar o'quv dasturidagi tegishli fanlar bilan **unifikatsiya** qilinadi;

o'quv dasturlari tarkibiga **STEAM** ta'lim tizimini tatbiq etish orqali yoshlarni fizika, kimyo, biologiya, texnologiya, muhandislik, matematika (STEM) bilan bog'liq kasblarga qiziqishi oshiriladi;

matematika fani dasturi tarkibiga xalqaro **SAT** va **milliy sertifikat** imtihonlariga oid mavzular kiritiladi;

ta'lim muassasalarining imkoniyatlaridan kelib chiqib, Pedagogik kengash qarori bilan o'quvchi yoshlarni dunyo bo'yicha tan olingan **"Xalqaro bakalavriat"** va **"A level"** ta'lim dasturi asosida o'qitish joriy qilinadi;

darslar zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda tashkil qilinadi;

o'quv xonalari fanlar xususiyatlaridan kelib chiqib, zamonaviy talablar va sanitariya qoidalariga mos ravishda jihozlanadi;

qo'shimcha o'quv adabiyotlari, innovatsion o'quv-uslubiy materiallar yaratish orqali ta'lim sifati va samaradorligi oshiriladi.

5. O'quv dasturi, o'quv mavzularining yuklamasi, hajmi va taqsimoti

11. O'rta maxsus ta'limning birinchi va ikkinchi bosqichida har bir o'quv yili 36 haftadan iborat bo'lib, bir semestr 18 haftani o'z ichiga oladi.

12. O'quv jarayoni haftasining davomiyligi 6 kun (ta'lim muassasasining Pedagogik kengashi qarori bilan 5 kun) etib belgilanadi.

13. O'rta maxsus ta'lim sohalari bo'yicha malaka talablari mazkur davlat standarti muvofiq ishlab chiqiladi.

Malaka talablarining qo'llanilish sohasi, maqsad va vazifalari, akademik litsey bitiruvchilari kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar, ega bo'lishi zarur bo'lgan umumiy kompetensiyalar hamda ta'lim sohasi bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi (fanlar bo'yicha alohida kompetensiyalar) aniq ko'rsatiladi.

Tayanch so'zlar belgilangan tartibda keltiriladi.

Malaka talablari:

A-4 formatli standart varaqlarining "kitob ko'rinishida ikki tarafga "Times New Roman" shriftining maqbul o'lchamida bostirib chiqariladi;

malaka talablari oliy ta'lim muassasalari hamda akademik litseylarning malakali mutaxassislaridan tashkil etilgan Ishchi guruhlar tomonidan tayyorlanadi hamda Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasidan o'tkaziladi, shuningdek ushbu kengash ijobiy xulosasi olingach O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi;

tasdiqlangan malaka talablari belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida etalon sifatida, ikkinchi nusxasi tegishli Vazirlikning akademik litseylarni o'quv-metodik muvofiqlashtiruvchi tegishli bo'limida saqlanadi hamda undan nusxalar ko'chirilib talabnomalar asosida boshqa ta'lim muassasalariga tarqatiladi.

14. O'rta maxsus ta'limning ta'lim sohalari bo'yicha tayanch o'quv rejalari (bundan buyon matnda – tayanch o'quv rejalari deb yuritiladi) fanlar bo'limlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning kurslar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Tayanch o'quv rejalari ta'lim mazmunidan kelib chiqib, ta'lim muassasalari tayyorlov yo'nalishlarining o'quv rejalari ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

15. O'quv rejalari o'quvchilarning umumiy haftalik yuklamasi 54 soatni, shundan 36 – 40 soati auditoriya yuklamasini va 18 – 14 soati mustaqil ishni tashkil etadi.

16. Barcha o'quv mashg'ulotlari uchun ikki akademik o'quv soati davomiyligi 80 daqiqa etib belgilanadi.

17. Tayanch o'quv rejasiga ajratilgan umumiy soatlar miqdori doirasida namunaviy o'quv rejalari ishlab chiqishda tayyorlov yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, ikkinchi bo'limga ajratilgan soatlar miqdoriga 10 foizgacha o'zgartirish kiritilishi mumkin.

18. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida ta'lim qoraqalpoq, o'zbek va rus tillarida olib boriladigan guruhlarda kichik guruhlarda o'rganiladigan til ko'pchilik o'quvchilarning xohishiga ko'ra ta'lim muassasasining Pedagogik kengashi qarori bilan belgilanadi.

19. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida birinchi o'quv yili 36 hafta tugaganidan keyin qo'shimcha ikki hafta o'quv amaliyoti o'tkaziladi.

20. Vazirlik va idoralar tizimidagi harbiy-akademik litseylarda birinchi o'quv yili 36 hafta tugaganidan keyin qo'shimcha uch hafta kasbiy fanlar o'qitiladi hamda dala mashg'uloti o'tkaziladi.

21. O'rta maxsus ta'lim muassasalari uchun tayanch o'quv rejalari tuzilishi quyidagi jadvallarda keltirilgan:

I. Akademik litseylar uchun

1. O'quv jarayoni jadvali

O'qish muddati: 2 yil

Hafta Kurs	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17			18
I																		T	T	
II																		T	T	

Jadvalning davomi

Hafta Kurs	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36		
I																			T	T
II																			D	D

☐ Nazariy va amaliy ta'lim

☐ T Ta'til

☐ D Davlat attestatsiyasi

2. Tayanch o'quv rejalari:

1) Aniq fanlar ta'lim sohasi bo'yicha

T/r	O'quv fanlari	Jami soatlar	Soatlarning kurslar va semestrlar bo'yicha taqsimoti			
			1-kurs		2-kurs	
			1-sem	2-sem	3-sem	4-sem
			18	18	18	18
I.	Umumta'lim fanlari	1548	468	432	324	324
1.	Ona tili va adabiyot	252	54	54	72	72
	Ona tili	144	36	36	36	36
	Adabiyot	108	18	18	36	36

2.	O'zbek (rus) tili	108	36	36	36	
3.	Xorijiy til	216	72	72	36	36
4.	Tarix	108	18	18	36	36
	O'zbekiston tarixi	72			36	36
	Jahon tarixi	36	18	18		
5.	Davlat va huquq asoslari	36	18	18		
6.	Tarbiya	36	18	18		
7.	Matematika	288	72	72	72	72
	Algebra va analiz asoslari	144	36	36	36	36
	Geometriya	144	36	36	36	36
8.	Informatika va axborot texnologiyalari	144	36	36	36	36
9.	Fizika va astronomiya	108	36	36	0	36
	Fizika	72	36	36		
	Astronomiya	36				36
10.	Biologiya	36	18	18		
11.	Kimyo	36	18	18		
12.	Geografiya	36	36			
13.	Jismoniy tarbiya	72	36	36		
14.	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	72			36	36
II.	Chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar (ta'lim yo'nalishlari bo'yicha)	828	180	216	216	216
III.	Unifikatsiya qilinadigan fanlar	144			72	72
IV.	Kasbiy fanlar	72			36	36
	Davlat attestatsiyasi	72				
	Hammasi:	2664	648	648	648	648
	Haftalik yuklama		36	36	36	36

2) Tabiiy fanlar ta'lim sohasi bo'yicha

T/r	O'quv fanlari	Jami soatlar	Soatlarning kurslar va semestrlar bo'yicha taqsimoti			
			1-kurs		2-kurs	
			1-sem	2-sem	3-sem	4-sem
	Semestr Haftalar soni		18	18	18	18
I.	Umumta'lim fanlari	1548	468	432	360	288
1.	Ona tili va adabiyot	252	54	54	72	72
	Ona tili	144	36	36	36	36
	Adabiyot	108	18	18	36	36
2.	O'zbek (rus) tili	108	36	36	36	
3.	Xorijiy til	216	72	72	36	36
4.	Tarix	108	18	18	36	36
	O'zbekiston tarixi	72			36	36
	Jahon tarixi	36	18	18		

5.	Davlat va huquq asoslari	36	18	18		
6.	Tarbiya	36	18	18		
7.	Matematika	180	36	36	72	36
	Algebra va analiz asoslari	108	36	36	36	
	Geometriya	72			36	36
8.	Informatika va axborot texnologiyalari	108	36	36	36	
9.	Fizika va astronomiya	108	36	36	0	36
	Fizika	72	36	36		
	Astronomiya	36				36
10.	Biologiya	108	36	36	18	18
11.	Kimyo	108	36	36	18	18
12.	Geografiya	36	36			
13.	Jismoniy tarbiya	72	36	36		
14.	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	72			36	36
II.	Chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar (ta'lim yo'nalishlari bo'yicha)	828	180	216	216	216
III.	Unifikatsiya qilinadigan fanlar	144			36	108
IV.	Kasbiy fanlar	72			36	36
	Davlat attestatsiyasi	72				
	Hammasi:	2664	648	648	648	648
	Haftalik yuklama		36	36	36	36

3) Ijtimoiy-gumanitar fanlar ta'lim sohasi bo'yicha

T/r	O'quv fanlari	Jami soatlar	Soatlarning kurslar va semestrlar bo'yicha taqsimoti			
			1-kurs		2-kurs	
			1-sem	2-sem	3-sem	4-sem
	Semestr					
	Haftalar soni		18	18	18	18
I.	Umumta'lim fanlari	1548	468	432	360	288
1.	Ona tili va adabiyot	288	72	72	72	72
	Ona tili	144	36	36	36	36
	Adabiyot	144	36	36	36	36
2.	O'zbek (rus) tili	108	36	36	36	
3.	Xorijiy til	216	72	72	36	36
4.	Tarix	216	36	36	72	72
	O'zbekiston tarixi	126	36	18	36	36
	Jahon tarixi	90		18	36	36
5.	Davlat va huquq asoslari	36	18	18		
6.	Tarbiya	36	18	18		
7.	Matematika	180	36	36	72	36
	Algebra va analiz asoslari	108	36	36	36	
	Geometriya	72			36	36

8.	Informatika va axborot texnologiyalari	108	36	36	36	
9.	Fizika va astronomiya	108	36	36	0	36
	Fizika	72	36	36		
	Astronomiya	36				36
10.	Biologiya	36	18	18		
11.	Kimyo	36	18	18		
12.	Geografiya	36	36			
13.	Jismoniy tarbiya	72	36	36		
14.	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	72			36	36
II.	Chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar (ta'lim yo'nalishlari bo'yicha)	828	180	216	216	216
III.	Unifikatsiya qilinadigan fanlar	144			36	108
IV.	Kasbiy fanlar	72			36	36
	Davlat attestatsiyasi	72				
	Hammasi:	2664	648	648	648	648
	Haftalik yuklama		36	36	36	36

4) Xorijiy tillar ta'lim sohasi bo'yicha

T/r	O'quv fanlari	Jami soatlar	Soatlarning kurslar va semestrlar bo'yicha taqsimoti			
			1-kurs		2-kurs	
			1-sem	2-sem	3-sem	4-sem
	Semestr Haftalar soni		18	18	18	18
I.	Umumta'lim fanlari	1548	468	432	360	288
1.	Ona tili va adabiyot	252	36	72	72	72
	Ona tili	144	36	36	36	36
	Adabiyot	108		36	36	36
2.	O'zbek (rus) tili	144	36	36	36	36
3.	Xorijiy til	288	72	72	72	72
4.	Tarix	144	72	36	36	36
	O'zbekiston tarixi	108	54	18	36	36
	Jahon tarixi	36	18	18		
5.	Davlat va huquq asoslari	36	18	18		
6.	Tarbiya	36	18	18		
7.	Matematika	180	36	36	72	36
	Algebra va analiz asoslari	108	36	36	36	
	Geometriya	72			36	36
8.	Informatika va axborot texnologiyalari	108	36	36	36	
9.	Fizika va astronomiya	108	36	36	0	36
	Fizika	72	36	36		
	Astronomiya	36				36

10.	Biologiya	36	18	18		
11.	Kimyo	36	18	18		
12.	Geografiya	36	36			
13.	Jismoniy tarbiya	72	36	36		
14.	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	72			36	36
II.	Chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar (ta'lim yo'nalishlari bo'yicha)	828	180	216	216	216
III.	Unifikatsiya qilinadigan fanlar	144			36	108
IV.	Kasbiy fanlar	72			36	36
	Davlat attestatsiyasi	72				
	Hammasi:	2664	648	648	648	648
	Haftalik yuklama		36	36	36	36

II. Harbiy-akademik litseylar uchun

1. O'quv jarayoni jadvali

O'qish muddati: 2 yil

Hafta Kurs	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17			18
I																		T	T	
II																		T	T	

Jadvalning davomi

Hafta Kurs	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36			
I																			K	K	K
II																			D	D	

☐ Nazariy va amaliy ta'lim

☐ T Ta'til

☐ K Kasbiy fanlar

☐ D Davlat attestatsiyasi

2. Tayanch o'quv rejalari:

1) Aniq fanlar ta'lim sohasi bo'yicha

T/r	O'quv fanlari	Jami soatlar	Soatlarning kurslar va semestrlar bo'yicha taqsimoti				
			1-kurs			2-kurs	
			1-sem	2-sem		3-sem	4-sem
			18	18	3	18	18
I.	Umumta'lim fanlari	1584	468	450	0	342	324
1.	Ona tili va adabiyot	234	36	54		72	72
	Ona tili	144	36	36		36	36
	Adabiyot	90		18		36	36
2.	O'zbek (rus) tili	108	36	36		36	
3.	Xorijiy til	216	72	72		36	36

4.	Tarix	108	18	18		36	36
	O'zbekiston tarixi	72				36	36
	Jahon tarixi	36	18	18			
5.	Davlat va huquq asoslari	36	18	18			
6.	Tarbiya	36	18	18			
7.	Matematika	288	72	72		72	72
	Algebra va analiz asoslari	144	36	36		36	36
	Geometriya	144	36	36		36	36
8.	Informatika va axborot texnologiyalari	126	36	36		36	18
9.	Fizika va astronomiya	108	36	36		0	36
	Fizika	72	36	36			
	Astronomiya	36					36
10.	Biologiya	36	18	18			
11.	Kimyo	36	18	18			
12.	Geografiya	36	36				
13.	Jismoniy tarbiya	108	36	36		18	18
14.	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	108	18	18		36	36
II.	Chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar (ta'lim yo'nalishlari bo'yicha)	738	180	198		180	180
III.	Umumkasbiy fanlar	162				90	72
IV.	Kasbiy fanlar	282	36	36	102	36	72
	Dala mashg'uloti	12			12		
	Davlat attestatsiyasi	72					
	Hammasi:	2850	684	684	114	648	648
	Haftalik yuklama		38	38	38	36	36

2) Ijtimoiy-gumanitar fanlar ta'lim sohasi bo'yicha

T/r	O'quv fanlari	Jami soatlar	Soatlarning kurslar va semestrlar bo'yicha taqsimoti				
			1-kurs			2-kurs	
			1-sem	2-sem		3-sem	4-sem
			18	18	3	18	18
I.	Umumta'lim fanlari	1584	486	432	0	378	288
1.	Ona tili va adabiyot	252	54	72		72	54
	Ona tili	144	36	36		36	36
	Adabiyot	108	18	36		36	18
2.	O'zbek (rus) tili	108	36	36		36	
3.	Xorijiy til	216	72	72		36	36
4.	Tarix	216	36	36		72	72
	O'zbekiston tarixi	126	36	18		36	36
	Jahon tarixi	90		18		36	36

5.	Davlat va huquq asoslari	36	18	18			
6.	Tarbiya	36	36				
7.	Matematika	180	36	36		72	36
	Algebra va analiz asoslari	108	36	36		36	
	Geometriya	72				36	36
8.	Informatika va axborot texnologiyalari	108	36	36		36	
9.	Fizika va astronomiya	108	36	36		0	36
	Fizika	72	36	36			
	Astronomiya	36					36
10.	Biologiya	36	18	18			
11.	Kimyo	36	18	18			
12.	Geografiya	36	36				
13.	Jismoniy tarbiya	108	36	36		18	18
14.	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	108	18	18		36	36
II.	Chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar (ta'lim yo'nalishlari bo'yicha)	738	162	216		180	180
III.	Umumkasbiy fanlar	162				54	108
IV.	Kasbiy fanlar	282	36	36	102	36	72
	Dala mashg'uloti	12			12		
	Davlat attestatsiyasi	72					
	Hammasi:	2850	684	684	114	648	648
	Haftalik yuklama		38	38	38	36	36

III. Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari uchun 1. O'quv jarayoni jadvali

O'qish muddati: 2 yil

Hafta Kurs	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17			18
I																		T	T	
II																		T	T	

Jadvalning davomi

Hafta Kurs	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36		
I																			O'A	O'A
II																			D	D

☐ Nazariy va amaliy ta'lim☐ T Ta'til☐ O'A O'quv amaliyoti☐ D Davlat attestatsiyasi

2. Tayanch o'quv rejasi

T/r	O'quv fanlari	Jami soatlar	Soatlarning kurslar va semestrlar bo'yicha taqsimoti				
			1-kurs			2-kurs	
			1-sem	2-sem		3-sem	4-sem
			18	18	2	18	18
I.	Umumta'lim fanlari	1620	486	450	0	360	324
1.	Ona tili va adabiyot	288	72	72		72	72
	Ona tili	144	36	36		36	36
	Adabiyot	144	36	36		36	36
2.	O'zbek (rus) tili	108	36	36		36	
3.	Xorijiy til	216	72	72		36	36
4.	Tarix	216	36	36		72	72
	O'zbekiston tarixi	126	36	18		36	36
	Jahon tarixi	90		18		36	36
5.	Davlat va huquq asoslari	36	18	18			
6.	Tarbiya	36	18	18			
7.	Matematika	180	36	36		72	36
	Algebra va analiz asoslari	108	36	36		36	
	Geometriya	72				36	36
8.	Informatika va axborot texnologiyalari	108	36	36		18	18
9.	Fizika va astronomiya	108	36	36		0	36
	Fizika	72	36	36			
	Astronomiya	36					36
10.	Biologiya	36	18	18			
11.	Kimyo	36	18	18			
12.	Geografiya	36	36				
13.	Jismoniy tarbiya	108	36	36		18	18
14.	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	108	18	18		36	36
II.	Chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar (ta'lim yo'nalishlari bo'yicha)	792	144	180		216	252
III.	Umumkasbiy fanlar	180	54	54		36	36
IV.	Kasbiy fanlar	72				36	36
	O'quv amaliyoti	72			72		
	Davlat attestatsiyasi	72					
	Hammasi:	2808	684	684	72	648	648
	Haftalik yuklama		38	38	36	36	36

6. O'qitish natijalarini baholash

22. O'quvchilarning bilimi va o'zlashtirish darajasini aniqlashda quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

joriy nazorat – o'quvchining fan mavzulari bo'yicha o'zlashtirish darajasini muntazam ravishda aniqlash va baholash usuli hisoblanadi. Joriy nazorat fan mavzusi doirasida o'zlashtirgan bilimlarni og'zaki va yozma bayon etish, pedagog xodimning topshiriqlari asosida bahs-munozaraga kirishish, muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), jamoada ishlash, mustaqil ishlar (taqdimotlar) tayyorlash va boshqa shakllarda baholashga qaratiladi. Joriy nazorat og'zaki so'rovlar, seminarlar, yozma ish, diktant, bayon, insho va testlar shakllarida o'tkaziladi;

oralik nazorat – semestr davomida fan o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugagandan keyin o'quvchining bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida o'tkaziladi. Oralik nazorat o'quvchi tomonidan fan o'quv dasturining tegishli bo'limlari mazmunini o'zlashtirish darajasi, o'quvchining adabiyotlar bilan ishlash amaliy ko'nikmalari, muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), mustaqil izlanishlar olib borish, o'z fikrlarini izchil va aniq bayon qilish qobiliyatini baholashga qaratilgan. Oralik nazorat har bir o'quv fanining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda semestr davomida o'quv yuklamasi 36 soat va undan ko'p bo'lgan fanlarda kamida bir marotaba o'tkaziladi. Oralik nazorat og'zaki, yozma ish (individual yoki jamoaviy ish, prezentatsiya, tahliliy ma'lumot tayyorlash, muammoli vaziyat (kazus)lar) yoki test sinovlari shaklida o'tkaziladi. Oralik nazorat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali ham topshirilishi mumkin;

yakuniy nazorat – o'quv dasturi doirasida o'quvchining nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni to'liq o'zlashtirganlik darajasini baholashning yakuniy bosqichi hisoblanadi. O'quv rejada belgilangan fanlar bo'yicha yakuniy nazorat semestr yakunida yozma yoki test shakllarida o'tkaziladi. Boshqa hollarda yakuniy nazoratning o'tkazilish tartibi, shakli ta'lim muassasasining Pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.

“Xalqaro bakalavriat” va **“A level”** ta'lim dasturi asosida o'qitish hamda **SAT** baholash tizimi joriy qilingan guruhlarda o'quvchilar ushbu dasturlarning baholash tizimida baholanadi.

7. Monitoring va baholash

23. Monitoring ta'lim sifatini baholash va nazorat qilishning uzluksiz jarayoni sifatida belgilanib, bu jarayon ta'lim holatini kuzatish, baholash va istiqbollarini belgilashda muhim hisoblanadi.

24. Monitoring qilishning maqsadi:

- o'quv jarayonini o'rganish, tahlil qilish va sifat jihatdan baholash;
- o'quvchilarning bilishga bo'lgan faolligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quv jarayonining davlat ta'lim talablari asosida olib borilayotganligini kuzatish;
- o'quv jarayonining uslubiy va tashkiliy jihatdan ta'minlanganligini aniqlash;
- o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash;
- turli so'rovnomalar o'tkazish va ularning tahlilini qilish va xulosalar chiqarish;
- zamonaviy o'qitish metodikasidan foydalanish holatini o'rganish;
- o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi bo'yicha xulosalar ishlab chiqish;
- xorijiy tajribalarni o'rganish va o'quv jarayoniga tadbiq etish.

25. Monitoring qilishda ta'lim jarayonining borishi, uslubiy va tashkiliy jihatdan ta'minlanganligi kuzatiladi, tahlil qilinadi, ta'limdagi sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi va xulosa qilinadi, shuningdek, istiqboldagi vazifalar belgilanadi hamda o'quvchilarning kompetensiyalarini takomillashtirishda qanday yondashuvlarga urg'u berish lozimligi aniqlanadi. Monitoring qilish o'quv jarayoni davomida doimiy tarzda olib boriladi. Monitoring qilish usullari ta'lim muassasalarining Pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.

26. O‘rta maxsus ta’lim sifatini nazorat qilish quyidagi usullarda olib boriladi:

ichki nazorat – ta’lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat o‘rta maxsus ta’limni boshqarish bo‘yicha respublika ijro etuvchi hokimiyat organi tomonidan tegishli ravishda belgilangan baholash tizimi mezonlariga muvofiq o‘rnatilgan tartibda o‘tkaziladi;

bitiruvchilarning yakuniy nazorati – o‘rta maxsus ta’limning o‘quv rejalariga muvofiq o‘quv fanlari bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi shaklida amalga oshiriladi;

davlat-jamoatchilik nazorati – o‘rta maxsus ta’limni boshqarish bo‘yicha respublika ijro etuvchi hokimiyat organi, u bilan kelishilgan holda jamoat tashkilotlari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

tashqi nazorat – belgilangan tartibda o‘rta maxsus ta’limni boshqarish bo‘yicha respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hamda tashqi nazorat o‘tkazish bo‘yicha vakolat berilgan tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

27. O‘rta maxsus ta’lim muassasalarining faoliyatini baholash O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi.